“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati
Yagona aksiyadorining 16 - sonli
Q A R O R I

Toshkent shahri 2025-yil 7- mart

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son qaroriga asosan “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - “O‘zbekiston MET” AJ) Yagona aksiyadori Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi.

Qaror qabul qilinadigan masala:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda-Farmon) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektr energiyasini xarid qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 3-fevraldagi PQ-39-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) ijrosini ta’minlash jarayonida “O‘zbekiston MET” AJ tomonidan tuzilgan bitimlarni “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirish.

Farmonning 3 va 7-bandlarida 2025-yil 1-yanvardan boshlab “O‘zbekiston MET” AJning elektr energiyasi eksporti va importi shartnomalari, xususiy elektr stansiyalari bilan imzolangan elektr energiyasini sotib olish to‘g‘risidagi bitimlar hamda bitimlarga oid majburiyatlari “O‘zenergosotish” AJga to‘liq o‘tkazilishi hamda qaytadan rasmiylashtirilishi belgilab o‘tilgan.

Qarorning 2-bandi bilan xususiy elektr energiyasini saqlash tizimlarini qurish bo‘yicha 13 ta loyiha va ular doirasida imzolangan boshqa shartnomalar yuzasidan huquq va majburiyatlar “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirilganligi hamda 2025-2028-yillarda 39ta shunday loyihalar doirasida imzolangan bitimni “O‘zenergosotish” AJga o‘tkazish va qayta rasmiylashtirish ma’qullangan.

2025-yilning 1-yanvar holatiga “O‘zbekiston MET” AJning sof aktivlari 5,4 trln so‘mni (musbat) hamda qayta rasmiylashtirilgan va rasmiylashtiriladigan loyihalarning umumiy qimati 18 157,7 mln AQSh dollarini tashkil etganligi sababli:

davlat-xususiy sherikchilik asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘yicha bir qator investorlar (kreditorlar) bilan imzolangan shartnomalarni “O‘zbekiston MET” AJdan “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirish;

davlat-xususiy sherikchilik loyihalari asosida elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan elektr energiyasini kafolatlangan tarzda xarid qilishning ta’minoti sifatida O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan “O‘zbekiston MET” AJga taqdim etilgan bank kafolati (akkreditivlari)ni “O‘zenergosotish” AJga o‘tkazish bo‘yicha bitimlarni qayta rasmiylashtirish Yagona aksiyador vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 59 va 84-moddalariga muvofiq Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zbekiston MET” AJ tomonidan xususiy elektr stansiyalari, havo elektr uzatish tarmoqlari hamda elektr energiyasini saqlash tizimlarini qurish bo‘yicha imzolangan bitimlar va ular doirasida imzolangan boshqa shartnomalar yuzasidan huquq va majburiyatlar “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirilganligi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

2. “O‘zbekiston MET” AJga 2-ilovada ko‘rsatilgan loyihalar bo‘yicha bitimlarni hamda ular doirasida elektr energiyasini yetkazib berish, mustaqil injiniring kompaniyalari va boshqa maslahatchilar hamda moliyalashtiruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan bitimlar yuzasidagi kelishuvlar, qisman xatarlarni kafolatlash (PRG) bilan bog‘liq bitimlar, xususiy elektr stansiyalaridan elektr energiyasini xarid qilish bo‘yicha taqdim etilgan bank kafolat (akkreditiv)larini 2025-2028-yillarda “O‘zenergosotish” AJga o‘tkazish va qayta rasmiylashtirish bilan bog‘liq bitimlarni tuzishiga rozilik berilsin.

3. “O‘zbekiston MET” AJ boshqaruvi raisi D. Isaqulov mazkur bitimlarni “O‘zbekiston MET” AJ tomonidan imzolanishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash “O‘zbekiston MET” AJ boshqaruvi raisi D. Isaqulov zimmasiga yuklatilsin.

Yagona aksiyador nomidan:
Iqtisodiyot va moliya vazirining o‘rinbosari **X. B. Mustafayev**

"O‘zbekiston MET" AJ
Yagona aksiyadorining 7 - mart dagi
16 - son qaroriga
1- Ilova

"O‘zbekiston MET" AJning loyihalar va ular doirasida imzolangan boshqa shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlari "O‘zenergosotish" AJga qayta rasmiylashtirilgan bitimlar

RO‘YXATI

T/r	Loyiha nomi	Xorijiy hamkor	Qayta rasmiylashtirilgan sana
1.	Toshkent viloyatida quvvati 240 MVT bo‘lgan issiqlik elektr stansiyasini qurish	"Aksa Enerji" (Turkiya)	2024-yil, sentabr
2.	Toshkent viloyatida quvvati 230 MVT bo‘lgan issiqlik elektr stansiyasini qurish	"Aksa Enerji" (Turkiya)	2024-yil, sentabr
3.	Buxoro viloyatida quvvati 270 MVT bo‘lgan gaz porshenli elektr stansiyasini qurish	"Aksa Enerji" (Turkiya)	2024-yil, sentabr
4.	Namangan viloyatining Pop tumanida quvvati 500 MVT bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	"Hyper Partners" (Germaniya)	2024-yil, sentabr
5.	Toshkent viloyatida quvvati 240 MVT bo‘lgan navbatdagi issiqlik elektr stansiyasini qurish	"Cengiz Enerji" (Turkiya)	2024-yil, sentabr
6.	Jizzax viloyatida quvvati 550 MVT bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasini qurish	"Cengiz Enerji" (Turkiya)	2024-yil, sentabr
7.	Sirdaryo viloyatida quvvati 220 MVT bo‘lgan gaz porshenli elektr stansiyasini qurish	"Cengiz Enerji" (Turkiya)	2024-yil, sentabr
8.	Xorazim viloyatida quvvati 174 MVT bo‘lgan gaz porshenli elektr stansiyasini qurish	"Odaş Enerji" (Turkiya)	2024-yil, sentabr

T/r	Loyiha nomi	Xorijiy hamkor	Qayta rasmiylashtirilgan sana
9.	Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida quvvati 500 MVT bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2024-yil, dekabr
10.	Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida quvvati 500 MVT bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2024-yil, dekabr
11.	Andijon viloyatining Asaka tumanida quvvati 150 MVT (300 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2024-yil, dekabr
12.	Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumanida quvvati 150 MVT bo‘lgan (300 MVt soat) elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2024-yil, dekabr
13.	Toshkent viloyatining Bo‘ka tumanida quvvati 263 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish	“China Datang” (Xitoy)	2024-yil, dekabr

"O‘zbekiston MET" AJ
Yagona aksiyadorining 7 - mart dagi
16 - son qaroriga
2- Ilova

Loyihalar doirasida imzolangan Bitimlar va boshqa shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlarni (shu jumladan, elektr energiyasini yetkazib berish, mustaqil injiniring kompaniyalari va boshqa maslahatchilar hamda moliyalashtiruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan bitimlar yuzasidagi kelishuvlar, qisman xatarlarni kafolatlash (PRG) bilan bog‘liq bitimlar, xususiy elektr stansiyalaridan elektr energiyasini xarid qilish bo‘yicha taqdim etilgan bank kafolat (akkreditiv)larini) "O‘zenergosotish" AJga o‘tkazish va qayta rasmiylashtirish ishlari bilan bog‘liq bitimlar

RO‘YXATI

T/r	Loyiha nomi	Xorijiy hamkor	Qayta rasmiylashtirish muddati
1.	Sirdaryo viloyatida quvvati 1 500 MVt bo‘lgan yangi issiqlik elektr stansiyasini qurish	"ACWA Power" (Saudiya Arabistoni)	2025-yil, iyul
2.	Qashqadaryo viloyatida quvvati 400 MVt bo‘lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish	"Aksa Enerji" (Turkiya)	2025-yil, mart
3.	Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	"Masdar" (BAA)	2025-yil, aprel
4.	Samarqand viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan fotoelektr stansiyasini qurish	"Total Eren" (Fransiya)	2025-yil, iyul
5.	Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida quvvati 220 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	"Masdar" (BAA)	2025-yil, aprel
6.	Jizzax viloyati G‘allaorol tumanida quvvati 220 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	"Masdar" (BAA)	2025-yil, aprel
7.	Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida quvvati 456,6 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	"Masdar" (BAA)	2025-yil, aprel

T/r	Loyiha nomi	Xorijiy hamkor	Qayta rasmiylashtirish muddati
8.	Toshkent viloyatining Yuqorichirchiq tumanida quvvati 400 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 334 MVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2026-yil, aprel
9.	Navoiy viloyatida quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini qurish	“Masdar” (BAA)	2025-yil, aprel
10.	Buxoro viloyatining Peshku tumanida quvvati 300-500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini qurish	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2025-yil, aprel
11.	Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini qurish	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2025-yil, aprel
12.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumanida quvvati 100 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2025-yil, avgust
13.	Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar-1)	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2025-yil, oktabr
14.	Surxondaryo viloyatida quvvati 1500-1600 MVt bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasini qurish	“Stone City Energy” (Niderlandiya)	2027-yil, noyabr
15.	Xorazm viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	“Voltalia” (Fransiya)	2025-yil, noyabr
16.	Navoiy viloyatining Nurota tumanida quvvati 300 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
17.	Saudiya Arabistonining “ACWA Power Company” kompaniyasi bilan birga “Maxam-Chirchiq” AJ negizida “yashil vodorod” ishlab chiqarishni tashkil etish	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2025-yil, may

T/r	Loyiha nomi	Xorijiy hamkor	Qayta rasmiylashtirish muddati
18.	Toshkent viloyatining Parkent tumanida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
19.	Toshkent viloyatining Piskent tumanida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
20.	Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
21.	Namangan viloyatining Uychi tumanida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
22.	Namangan viloyatining Pop tumanida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
23.	Andijon viloyatining Asaka tumanida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
24.	Qashqadaryo viloyatida quvvati 300 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 75 MVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“Masdar” (BAA)	2026-yil, mart
25.	Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida quvvati 1573 MVt bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasini qurish	“EDF”, “NEBRAS” va “Sojitz” (Fransiya, Qatar va Yaponiya)	2026-yil, iyul

T/r	Loyiha nomi	Xorijiy hamkor	Qayta rasmiylashtirish muddati
26.	Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar-2)	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2027-yil, iyul
27.	Buxoro viloyatida quvvati 250 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 63 MVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“Masdar” (BAA)	2025-yil, avgust
28.	Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida quvvati 600 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish	“Lioning Lide” (Xitoy)	2026-yil, noyabr
29.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak va Beruniy tumanlarida quvvati 200 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi hamda 100 MVt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2026-yil, yanvar
30.	Navoiy viloyatining Nurota tumanida quvvati 150 MVt (300 MVt soat) bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish	“China Energy” Overseas Investment (Xitoy)	2026-yil, yanvar
31.	Samarqand va Jizzax viloyatlarida quvvati 250 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi hamda havo elektr uzatish tarmoqlarini qurish (Alpha)	“Universal Energy” (Xitoy)	2027-yil, mart
32.	Samarqand va Jizzax viloyatlarida quvvati 250 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi hamda havo elektr uzatish tarmoqlarini qurish (Beta)	“Universal Energy” (Xitoy)	2027-yil, mart
33.	Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida quvvati 300 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish	“ACWA Power’ (Saudiya Arabistoni)	2027-yil, aprel
34.	Navoiy viloyatining Nurota tumanida quvvati 300 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini qurish	“China Energy’ Overseas Investment (Xitoy)	2027-yil, may
35.	Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘irot tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish	“ACWA Power’ (Saudiya Arabistoni)	2027-yil, dekabr

T/r	Loyiha nomi	Xorijiy hamkor	Qayta rasmiylashtirish muddati
	(Kungrad Wind-4)		
36.	Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘irot tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini, quvvati 100 MBt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini, hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish (Kungrad Wind-1)	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2028-yil, yanvar
37.	Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘irot tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini, quvvati 100 MBt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish (Kungrad wind-2)	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2028-yil, yanvar
38.	Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘irot tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini, quvvati 100 MBt bo‘lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish (Kungrad wind-3)	“ACWA Power” (Saudiya Arabistoni)	2028-yil, yanvar
39.	Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘irot tumanida quvvati 1000 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini qurish.	“AMEA Power” (BAA)	2028-yil, aprel